

TILSHUNOSLIK MASALALARIDA METONIMIK KO‘CHIM VA UNING KO‘RINISHLARI

Abdurahmanova Asila Alisherovna

TISU O’zbek tili talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14705278>

Annotatsiya. Maqolada lirik tasvir va ifodada metonimik ko‘chim va uning ko‘rinishlari Asqar Mahkam va Nodira Afokova ijodi misolida o‘rganilgan, she’riyatda mazkur hodisaning individualligi ilmiynazariy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: lug‘aviy ma’no, semantik qonuniyat, metaforik tafakkur, istiora, metaforametonimiya, metonimiya-sinekdoxa, kinoya, majoz.

METONYMIC TRANSFER AND ITS MANIFESTATIONS IN LINGUISTICS

Abstract. In the article, the metonymic movement and its manifestations in the lyric image and expression are studied on the example of the works of Askar Mahkam and Nodira Afokova, the individuality of this phenomenon in poetry is scientifically and theoretically justified.

Key words: lexical meaning, semantic regularity, metaphorical thinking, metaphor, metaphormetonymy, metonymysynecdoche, irony, metaphor.

МЕТОНИМИЧЕСКИЙ ПЕРЕНОС И ЕГО ПРОЯВЛЕНИЯ В ЛИНГВИСТИКЕ

Аннотация. В статье изучается метонимический перенос и его проявления в лирической образности и экспрессии на примере творчества Аскара Махкама и Нодиры Афоковой, научно и теоретически обосновывается своеобразие этого явления в поэзии.

Ключевые слова: лексическое значение, семантическая закономерность, метафорическое мышление, аллегория, метафора-метонимия, метонимия-некдом, ирония, сравнение.

Har qanday so‘zning lug‘aviy ma’nosini biror belgi, harakat, xususiyatning boshqa xuddi shunday xususiyatga ega bo‘lgan ob’ektga ko‘chirilishi natijasida kengayib boradi va rivojlanadi.

Ma’no ko‘chishining bunday rivojlanishini belgilab beradigan har bir tilning o‘zidagi semantik qonuniyatlar bevositi badiiy ijod bilan bog‘liq. Metonimiya (yunoncha metonymia — “qayta nomlash”) yuli bilan ma’no ko‘chishidabir belgi, harakatning nomi boshqa bir o‘xshashlik asosida emas, o‘zaro aloqadorlik, bog‘liqlikka asoslanadi. Metafora, metonimiya, sinekdoxa va vazifadoshlikdan tashqari, ma’no ko‘chishining qorishiq holda qo‘llanishi ham kuzatiladi. Bu hodisa metonimiyaiga ham tegishli: metafora-metonimiya, metonimiya-sinekdoxa tarzida

uchraydigan ko‘chimlar og‘zaki nutqda ham, badiiy adabiyotda ham ko‘p uchraydi. “Adabiyotshunoslik lug‘ati”ida “badiiy adabiyotda, ayniqsa, metaforik tafakkur etakchilik qilayotgan zamonaviy adabiyotda meionimiya metaforaga nisbatan kam uchraydi, zero estetik funkstiyadorligi jihatidan u metaforadan quyiroq turadi. Shunday bo‘lsa-da, badiiy matnda metafora bilan yondosh qo‘llangan holda u katta badiiy samara beradi, fikrni lo‘nda va ta’sirli ifodaashga xizmat qiladi”[1;172] “Adabiyotshunoslik terminlari lug‘ati”da metonimiya –“ ikki tushuncha o‘rtasidagi yaqinlikka asoslangan ko‘chma ifoda” [2;98], deyilgan bo‘lsa, boshqa bir adabiyotshunoslik lug‘atida esa quyidagicha ta’rif berilgan: “ikki tushuncha o‘rtasidagi yaqinlikka asolangan o‘xshashsiz ko‘chim. Metonimiyada biror narsa yoki voqeahodisaning nomi boshqasiga ko‘chiriladi, u boshqa nom bilan ifodalanadi, biroq bu nomlash predmet yoki narsalar o‘rtasidagi o‘xshashlikka emas, balki ular o‘rtasidagi yaqinlikka, aloqadorlikka asoslanadi. Mana shu jihat bilan metonimiya istioradan farq qiladi”[3;364]. Yuqoridagi ta’riflardan kelib chiqib, metonimiya haqidagi tushunchalarni ummlashtirsak, quyidagi to‘xtamga kelamiz. Demak, metonimiya – ma’no ko‘chishi, ya’ni majozning bir turi bo‘lib, u 178 ikki narsa, voqea-hodisa o‘rtasidagi aloqadorlikka asoslanadi, biroq ular o‘rtasida shakl, mazmun jihatidan o‘xshashlik, yaqinlik umuman kuzatilmaydi. Masalan, ko‘k (osmon, ko‘kat, rang, pul birligi (dollar). Xoh shoir bo‘lsin, xoh nosir bo‘lsin, hech kim metonimiyadan ham, perifrazadan ham bosh tortmagan va bunday adabiy priyom (usul)lar orasida juda qadimdan ma’lumlari to hozirgacha ham uchrab turadi, ular Avgust davri (XVII asr oxiri XVIII asr o‘rtalari)dayoq shoirlarga oddiy va siyqa tuyulgan. Ular bilan bir qatorda esa yana yangilari ham yuzaga keladi va ular kelajakda davrimizning adabiy g‘alatiliklari haqidagi asarlarning sahifalarini bezashi shubhasiz, deb yozadi Yan Parandovskiy[4;148]. Uning fikriga ko‘ra, metonimiya, perifraza, xuddi istiora kabi ijtimoiy tuzum, hukmron mafkura qanday bo‘lishiga qaramay barcha asrlar poeziyasiga xos mushtaraklik mavjud, metonimiya insonni fikrlay boshlagan davrlardayoq tug‘ilgan. Metonimiya kinoya sifatida talqin qilinar ekan, bu uning ibridoiy xalqlar madaniyatida etuk tamaddunlardagiga qaraganda ham ko‘proq tarqalganligini ko‘rsatadi. Chunki istioralar, kinoya, qochirimlar panasida tilga olish lozim bo‘lmagan so‘zlar yashiringan bo‘lib, ular ifodalagan tushunchalar esa parda ostiga olingan va tanib bo‘lmas darajada niqoblangan. Odamlar yovvoyi hayvonlarning, tabiatdagi dahshatli hodisalarning, kasalliklar va o‘limning nomini tilga olishdan saqlanishgan. Ba’zi bir qabilalarda shunga o‘xshash urf-odatlar to hozirga qadar saqlanib qolgan, jumladan, qabila boshlig‘iga taalluqli bo‘lgan barcha narsalarni ochiq-oydin aytish mumkin emas va shama, ishoralardagi topqirlik, ijodkorlik goho brauningcha chigallik darajasigacha etib boradi[4;149]

Majoz she'riy nutqni boyitadi, shoirning tasvir ob'ektiga munosabatini ifodalashga imkon beradi. O'xshatish, sifatlash, metafara (istiora), jonlantirish ham majoz turlariga kirsa, metonimiya, mubolag'a, sinekdoxa, perifraz, kinoya, antifraz, sarkazm kabilar qorishiq majozlar deb yuritiladi quronov Jazba tunlarida oyning shu'lasin Yo'1 bilgan xayolman. Boshqa hech kimman. Bir qudratli ovoz qilichi Sasim chiqarmas. Bo'g'zimga ko'mildim. Jimman. G'arlik, chaquv, fahshu tuhmatni beor Olqishlab gullarga ko'mganda shahar; Tillarini chaynab do'stlarim nochor, Tiynatim kosamga quyganda zahar; Pokiza jonlarni balchiqqa bulg'ab, Bayroq ko'targanda iblis lashkari; Tomoshagoh bo'lib bo'zlayotgan qalb, O'grilib turganda do'stlar teskari, Ketdim.[5;72] She'r adolatsizlik, zulm, haqsizlikdan bag'ri qon bo'lgan, do'stu 179 birodarlaridan oqibat ko'rmagan, o'zidan boshqa hech kim suyamasligini tushunib etgan va tan bergen, shu musibatga ko'nikkan, kurashda engilgan va chekinishga majbur bo'lgan, ichi nafratga to'la, do'stlaridan yordam kutganida ular yuz burib ketgan inson haqida. Unda bo'g'izga ko'milgan ovoznining qotili qudratli kuchning zulm-istibdodi ko'rsatilgan. Fahsh, chaquv, fahsh, tuhmatni olqishlayotgan beor shahar qiyoqasi aks etgan. Shahar so'zi orqali sinekdoxa yuzaga chiqqan, shahar emas, unda yashayotgan qo'rroq, oqibatsiz soxta do'stlar dushmanga xizmat qiladi. Hatto o'sha dushmanga qo'shilib, unga zahar tutadi, faqat bu og'u qahramonning tiynatiga quyiladi. Bu erda zahar ham ramziy ma'noda qo'llangan. Zahar – jaholat, sotqinlik, qo'rroqlik, manfaatparastlik. Tillarini chaynayotgan do'stlar – inson qachon tilini chaynaydi? Yo og'riqning zo'ridan, yo qo'rquvning kuchliligidan. Ko'rinib turibdiki, soxta do'stlar ikkinchi toifaga mansub.

Iblis lashkari – individual metafora, bu do'stlarning yana bir ko'rinishi, ular bayroq ko'tarib olishgan, bayroq esa g'alaba belgisi. Bayroq ko'tarish uchun kuch-qudrat bo'lishi kerak, iblis to'dasi shaharda bayroq ko'tarib yurgan ekan, demak u kuchga, qudratga to'lgan va o'z atrofida deyarli butun shahar xalqini birlashtirgan qavm. She'rda ilgari surilgan badiiy g'oya, muallif aytmoxchi bo'lgan fikr, lirik qahramonning qalbini o'rtayotgan dardni ochib berishda metafora, metonimiya, sinekdoxa va boshqa ko'chimlar jonli kartina hosil qilgan, voqelikni xuddi kinotasvirdek kitobxon ko'z oldida namoyo qilgan. Asqar Mahkamning "Shoir Ravshan Fayz xotirasiga" deb nomlangan she'rida metonimiya davr fojialarini, ijtimoiy hayotdagi illatlarni, sovet tuzumi yuritgan mafkuraning ayanchli asoratlarini ko'rsatishga xizmat qilgan: " Haq degan shoirlar ketolmas yashab yo o'lar, yo qolar egnida janda... Seni bir temirning tagiga tashlab Toshkent aysh surardi restoranlarda.... yoki Qo'qonda yigitlar otilganida Toshkentda ashula aytgan ...vachchamiz, va yana: Sen tongga intilding jasading bilan "shoirlar" Do'rmonda aroq qusganda..."

Shoir atoqli otlarni ko‘chma ma’noda shaxs oti o‘rnida qo‘llaydi, natijada metonimiya orqali she’rning ta’sirchanligi ortgan, lirk “men”ning kayfiyatidagi keskin norozilik, jamiyatdagiadolatsizlikka bo‘lgan nafrati she’rda o‘zining to‘liq tasdig‘ini topgan, bunda shoir “men”i lirk “men” bilan birlashgan. Xato bari Barchasi xato... Hamma yalar totli ruyoni Hatto ba’zan bir mushtumzo‘r shoh Aldab qo‘yar butun dunyoni.... Aldash rusum garchi qizlarni it suruvni aldab haydaydi Bir tepakal esa bizlarni etmisht yildan buyon aldaydi. Asqar Mahkam mazkur satrlarda sobiq sho‘ro tuzumining ilk yo‘lboshchisi 180 dahriy va shafqatsiz Lenin va uning xalqlar ustidan olib borilgan mustabid siyosatini fosh qilgan. Xalqni yolg‘on va’dalar o‘ziga og‘dirib olgan va shu yo‘l bilan 73 yil dunyoga tahdid solgan sobiq sho‘rolar davlatining maqsadi xalqlarni ruslashtirish, ulardan tekin ishchi kuchi sifatida foydalanish, mustaqil fikrni cheklash orqali sanoqsiz qullar imperiyasini barpo qilish bo‘lgan. Inson erkiga daxl qilingan har qanday jamiyatning tanazzulga yuz tutishi muqarrarligini esa vaqtning o‘zi isbotladi, va nihoyat yurtimiz istiqlolga erishdi.

REFERENCES

1. Қурунов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Т.: Akademnashr, 2013.
2. Ҳомидий Ҳ, Абдуллаева Ш, Иброҳимова С. Адабиётшунослик терминлари луғати. Т.: Ўқитувчи, 1970.
3. Хотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. Т.: Ўқитувчи, 1979. 364 б.
4. Ян Парандовский “Сўз кимёси” “Алхимия слова”, Москва, изд-во “Правда”, 1990 г.148-б 5. Афокова Н. Бизнинг эра. Т.: Ijod press, 2010.262 б. 6. Маҳкам Асқар.Ҳақ.Сайланма. Душанбе, Адиб, 1998.457 б
5. Berdieva Zebo Uralovna “LIRIK TASVIR VA IFODADA METONIMIK KO‘CHIM” maqola Termiz,2024